



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



BOBUR IJODIDAGI FARD VA RUBOIY JANRLARINING NASHRIY TADQIQI

Xurramov Olmos Uralovich

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

E-mail: xurramovolmos@navoiy-uni.uz

ORCID: /0009-0001-4388-4526

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./VIKM3618](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./VIKM3618)

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Boburnoma” va “Devon”da Bobur Mirzo ijodiga oid fard, ruboiy janrlarning bir-biridan farqli jihatlari turli yillarda nashr etilgan “Boburnoma” hamda “Devon”lar asosida tahlil orqali ko‘rsatib berildi. Mazkur manbalar asosida ikki janrning tafovutli jihatlari ikki aspektda, ya’ni ham formal belgilari, ham leksek-semantik xususiyatlari qiyosiy nuqtai nazardan ochiqlanishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, devon, ruboiy, fard, tamsil, memuar, tafovut, janr.

Annotation. In this article, the different aspects of the fard and rubai genres of Babur Mirzo's work in “Boburnoma” and “Devon” are shown through an analysis based on “Boburnoma” and “Devon” published in different years. Based on these sources, an attempt was made to reveal the different aspects of the two genres in two aspects, that is, both formal signs and lexical-semantic features from a comparative perspective.

Keywords: “Boburnoma”, devon, rubai, fard, tamsil, memoir, difference, genre.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” tarixiy-memuar asarida voqelikka xolis, tanqidiy va hissiy munosabatini bildirish, shuningdek, fikrini asoslash maqsadida Qur’oni karim oyatlari, hadislar, turkiy va forsiy tillardagi she’riy parchalar, maqollar, rivoyatlar hamda o‘z ijodiga mansub fard, ruboiy, qit’a, g‘azal va masnaviy janrlarga murojaat qilgan. Xususan, “Boburnoma”da keltirilgan Bobur Mirzo ijodiga mansub vajhi tasmiyasi bilan ko‘rsatilgan hamda tamsil sifatida keltirilgan lirik janrdagi asarlari shoir devonidan o‘rin olganligi hech kimga sir emas. Ammo Bobur Mirzo ijodiga daxldor fard, ruboiy janrlarning turli yillarda nashr etilgan “Boburnoma” hamda “Devon”larda bir leksema tafovuti bilan ifodalanganligi kishini taajjublantiradi.

Shu boisdan, “Boburnoma” hamda “Devon”dan o‘rin olgan fard, ruboiy janrlarning farqli jihatlari turli yillar kesimida nashr etilgan “Boburnoma” va “Devon”lar asosida taqqoslab masalaga oydinlik kiritishga harakat qilamiz.

“Boburnoma”ning 1498-1499-yillar bayonida Bobur Mirzo Ahmad Tanbalning xiyonatkorligi tufayli Andijon va Samarqandni qo‘ldan boy berib

qo'yadi hamda shu iztiroblar ta'sirida quyidagi fardini tamsil sifatida keltirib o'tadi. “Boburnoma”ning 2002-yil nashrida fard quyidagi shaklda berilgan:

Bormoqqa ne maskane muyassar,
Turmoqqa ne ma'mane muqarrar [Z.M.Bobur, 2002: 67].

“Boburnoma”ning 1960-, 1989-, 2021-yil nashrlarida mazkur fard 2002-yildagi nashridan bir leksema farqi bilan ifodalangan:

Bormoqqa ne maskan muyassar,
Turmoqqa ne davlat muqarrar [Z.M.Bobur, 1960:118;
1989:57; 2021:83].

“Boburnoma”ning 2002-yil nashrida yuqorida keltirilgan fard janrining ikkinchi misrasi ma'mane leksemasi bilan ifodalangan bo'lsa, “Boburnoma”ning 1960-, 1989-, 2021-yillardagi nashrida keltirilib o'tilgan fardning ikkinchi misrasida davlat so'zi qo'llangan. Bu esa turli yillarda nashr etilgan “Boburnoma” asarida bir janrning bir leksema farqi bilan ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin.

Bizningcha, “Boburnoma”ning 2002-yil nashrida berilgan fard janrining quyidagi ifoda shakli to'g'ri deb hisoblaymiz:

Bormoqqa ne maskane muyassar,
Turmoqqa ne ma'mane muqarrar [Z.M.Bobur, 2002: 67].

Bunday to'xtanga kelishimiz uchun uchta sababni ko'rsatishimiz mumkin:

1. Birinchi misradagi maskan leksemasi umumiylik ma'noda boshpana, joy, makon ma'nosini ifodalagan bo'lsa, ikkinchi misradagi ma'man tushunchasi umumiylik ma'nodagi joy, makon ma'nosiga semantik nuqtai nazardan aniqlik kiritadi. Ya'ni tahlikali bir vaziyatda xavotirsiz, tinch joy, tayinli bir makon, hudud bo'lishligini ta'kidlaydi.

2. Birinchi va ikkinchi misradagi so'zlar bir-biri bilan ohangdoshlikni hosil qilib, tarse' san'atini yuzaga keltirgan. Shu sababdan maskan so'zi ma'man so'zini ham shaklan, ham semantik jihatdan taqozo qilgan. Agar ikkinchi misradagi ma'mane so'zi o'rnida davlat so'zi qo'llanganda baytdagi marjonlar tizmasiga putur yetkazadi hamda qofiyadosh so'zlar bilan tavze' hodisasini ham yuzaga keltira olmas edi.

3. Ushbu fardda musallas qofiya mavjud bo'lib, shundan ikkitasi mutlaq qofiya, ya'ni bormoqqa-turmoqqa, maskane-ma'mane so'zlari asosida tashkillangan bo'lsa, bittasi muqayyad qofiya, ya'ni muyassar-muqarrar birliklari tashkil qiladi. Fardda musallas qofiyaning qo'llanishining eng muhim tomoni shundaki, qofiyadosh so'zlarning har bir so'zini alohida-alohida to'xtam bilan o'qilishi asnosida matn mazmunini teranroq idrok etishiga xizmat qiladi.

Shu bilan bir qatorda Bobur Mirzo qalamiga mansub mazkur fardning 1994-, 2007-, 2021-yillarda nashr etilgan “Devon”da qay tarzda joriylanganligini ko'rib o'tamiz. Jumladan, 1994-yil nashrida quyidagicha ifodalangan:

Bormoqqa ne maskan muyassar,
Turmoqqa ne davlat muqarrar. [Z.M.Bobur, 1994:140]

2007-, 2021-yillar nashrida bir xil ifoda shaklida berilgan:

Bormoqqa ne maskan muyassar,
Turmoqqa ne davlat muyassar. [Z.M.Bobur, 2007: 281;

2021: 452]

Bobur Mirzoning 1994-yilda nashr etilgan “Devon”idan o‘rin olgan

Bormoqqa ne maskan muyassar,
Turmoqqa ne davlat muqarrar

fardini qofiya mezonlaridan kelib chiqib munosabat bildirsak, muyassar-muqarrar so‘zlarining asoslari turli xil shaklda bo‘lib, raviy vazifasidagi r undoshi asos tarkibida kelib muqayyad qofiyani yuzaga chiqara olgan. Bu fard she‘r tizim strukturasi jihatidan vazn, qofiya talablariga javob bera oladi, lekin mazmuniy ifoda shaklida davlat leksemasi o‘rnida ma‘man so‘zi qo‘llanishi lozim bo‘ladi. Sababi birgina so‘zning o‘z o‘rnida kelishi musallas qofiya, tarse’ va tavze’ san’atlarining yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Shuningdek, shu vositalar orqali ilgari surilayotgan fikrning alohida ta’kidlanishiga ham imkon yaratib beradi.

2007-, 2021-yillar nashrida bir xil ifoda shaklida berilgan:

Bormoqqa ne maskan muyassar,
Turmoqqa ne davlat muyassar

fardidagi muyassar-muyassar so‘zlari na qofiyadoshlikni, na radifni, na jinsdoshlikni hosil qilib bergan. Bobur Mirzo vazn, qofiya, radif, she‘riy san’atlarning nazariy-amaliy jihatlarini juda yaxshi bilgan. Shu sababdan mazkur fardida muyassar-muyassar so‘zlarini qofiyadosh so‘z sifatida keltirib o‘tirmasdi. Fardning bunday mazmuniy ifoda shaklida berilishiga, avvalo, xattotlarning xatti-harakatlari natijasi o‘laroq yuzaga kelgan taxminni ilgari surish mumkin.

“Boburnoma”ning turli yillar nashrida keltirilgan fard janrining bir leksemada farqlanishi misra markazidan o‘rin olgan so‘zda namoyon bo‘lgan bo‘lsa, “Devon” tarkibidan o‘rin olgan farddagi tafovutli o‘zgarish esa misra oxirida, ya’ni qofiyadosh so‘zlarda ro‘y bergan. Bunday turlichalikning yuzaga kelishida quyidagi omillarni aytish mumkin:

1. “Boburnoma” tarixiy-memuar asarining turkiy tildagi qo‘lyozmalarning turli xattotlar tomonidan ko‘chirilishi;

2. “Boburnoma” asarining turkiy tildagi turli variantlaridan fors, ingliz, nemis va fransuz tillariga tarjima qilinishi;

3. “Boburnoma” asarining turkiy tildagi Haydarobod, London, Qozon va Parij qo‘lyozma nusxalarning mavjud bo‘lishi ham sabab bo‘lgan.

Fard janridagi kabi tafovutli holatni Bobur Mirzoning ruboiy janrida ham kuzatish mumkin. “Boburnoma”ning 1960-, 1989-, 2002-, 2021-yillaridagi nashrlarda quyidagi ruboiy bir xil ifoda shaklida berilgan:

Yod etmas emish kishini mehnatta kishi,
Shod etmas emish ko‘ngulni g‘urbatta kishi.
Ko‘nglum bu g‘aribliqta shod o‘lmadi hech,

G'urbatta sevnmas emish, albatta, kishi [Z.M.Bobur. 1960:156; 1989:90; 2002: 89; 2021:121].

“Boburnoma”da keltirilgan ruboiyning devonlarda qay tarzda berilganligini ko'rib o'tamiz.

1976-yilda nashr etilgan devonda mazkur ruboiy quyidagicha joylashtirilgan:

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.
Ko'nglum bu g'aribliqda shod o'lmadi, oh,
G'urbatda sevinmas emish, albatta, kishi [Z.M.Bobur.

1976: 61].

1993-yilda chop etilgan devonda quyidagicha berilgan:

Yod etmas emish kishini g'urbatta kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatta kishi.
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,
G'urbatda sevinmas emish albatta kishi [Z.M.Bobur.

1993:47].

1994-, 2007-, 2021-yillarda nashr etilgan devonlarda bir xilligini saqlab qolgan.

Yod etmas emish kishini g'urbatta kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatta kishi.
Ko'nglum bu g'aribliqda shod o'lmadi, oh,
G'urbatta sevnmas e(r)mish, albatta, kishi [Z.M.Bobur.

1994: 96; 2007:198-199; 2021:347].

1976-yil nashridagi ruboiy tarkibida kelgan g'urbatda, mehnatda, g'aribliqda, g'urbatda so'zlar tarkibidagi o'rin-payt kelishik qo'shimchasi asl matndagi –ta shaklida emas, -da hozirgi adabiy til shaklida ifodalangan, sevinmas fe'l tarkibidagi i fonemasi asliyatdagi u unlisi shaklida berilmagan. 1993-yildagi nashrida ham g'ariblikda, g'urbatda, sevinmas so'zlarida ham asos tarkibidagi fonema va qo'shimchalar asliyatdan farqli ravishda berilgan. Shu bilan bir qatorda grammatik aloqaga kirishmaydigan albatta kirish so'zi ikki tomondan vergul tinish belgisi bilan ajratilmagan. 1994-, 2008-, 2021-yillar nashrida berilgan ruboiyning faqatgina g'aribliqda leksema tarkibidagi o'rin-payt kelishik qo'shimchasining arxaik shakli saqlanmagan. Til tarixidan ma'lumki, “Eski o'zbek tilida o'rin-payt kelishigi formasi –da/-de// -ta/-te affiksi bilan yasalgan. Bu affiks tarkibidagi undoshning jarangli [-da/-de] yoki jarangsiz [-ta/-te] holda kelishi shu affiksni olgan so'zning qanday tovush bilan tugagan bo'lishiga bog'liq...jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga odatda jarangsiz –ta te variantlari qo'shiladi.” [F.Абдурахмонов, III.Илмуков. 1973:50-51]. Shu ma'noda asl matnda ko'makchi morfemalar qanday shaklda ifodalangan bo'lsa, o'sha asliyatni saqlagan holda berish lozim bo'ladi.

Turli yillarda nashr etilgan “Boburnoma” matnida mazkur ruboiyning leksema tarkibidagi fonemalar, yetakchi morfemaga qo‘shilgan ko‘makchi morfemalarning arxaik shakllari asli saqlangan holda berilgani tahsinga loyiq. Afsuski, turli yillar kesimida nashr etilgan “Devon”larda esa buning aksi, ya‘ni ruboiyning mazmun mohiyatini yuzaga chiqaruvchi leksema tarkibidagi fonema va ko‘makchi morfemalarning asl matnini hozirgi adabiy til qatlamida berilishi matnlar sathida tafovutlarni keltirib chiqqanining guvohi bo‘ldik. Shu boisdan nashrga tayyorlash jarayonida mumtoz adabiy meroslarimizning asl matnini sinchi mutaxassislarining nigohidan o‘tkazib olinsa, matnlararo sodir bo‘layotgan tafovutlarga barham bergan bo‘lar edi.

Yuqorida tahlilga tortilgan ruboiyning tafovutlari qiyosiy yo‘sinda formal jihatlariga qaratilgan edi. Navbatdagi farqli belgilar ruboiy tarkibidan o‘rin olgan so‘zlarning qo‘llanishi va leksek-semantik jihatlariga diqqatni qaratamiz.

“Boburnoma” va “Devon”da qayd etilgan ruboiyning ikkita farqli jihati mavjud. Birinchi farqi “Boburnoma”da ruboiyning birinchi misrasida mehnatta so‘zi o‘rin olgan bo‘lsa, ikkinchi misrada g‘urbatta so‘zi qo‘llangan. Devonlarda esa birinchi misrada g‘urbatta so‘zi ifodalangan bo‘lsa, ikkinchi misrada mehnatta so‘zi joylashtirilgan. Ikkinchi tafovuti “Boburnoma”da keltirilgan ruboiyning uchinchi misra oxiridagi so‘z “hech” leksemasi bilan tugallansa, devonlarda keltirilgan ruboiyning uchinchi misrasi “oh” so‘zi bilan yakunlangan.

Bizningcha, devonda keltirilgan ruboiydagi har bir so‘z leksik-semantik jihatdan muvofiq tanlanib Bobur Mirzo ruhiy kechinmalarini to‘liq ochib bera olgan. Sababi makon-zamon ma‘nosini oydinlashtirishda mashaqqat leksemasi emas, g‘urbat leksemasining hokim bo‘lak vazifasidagi yod etmoq qo‘shma fe‘liga tobelanishi natijasida urg‘ulagan ma‘noning yuzaga chiqishiga zamin yaratib berganligi hamda o‘z o‘rnida qo‘llana olganini ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur ruboiyning uchinchi misradagi hech inkor yuklamasiga nisbatan oh his-hayajon undov so‘zi musofirchilikda yurgan kishining ruhiy kechinmalarini kuchli ifodalay olgan va buning ishonch-tasdig‘i sifatida albatta modal so‘z orqali dalillay olgan. Shu sababdan devonda keltirilgan ruboiydagi har bir so‘z, ishora shoir ruhiy kechinmalarini to‘liq ochishga xizmat qilgan.

Muxtasar qilib aytganda, Bobur Mirzoning adabiy merosini keng ko‘lamda tadqiq etishda avvalo, birlamchi manbaga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki birlamchi manbaga tayanilmasa nashr manbalari orasida tafovutlarni vujudga keltirib, so‘zlarning ham shakli, ham mazmuniy tomoniga ta‘sir qiladi va shoir muddaosidan uzoqlashtiradi. Ta‘kidlash joizki, mumtoz adabiyotimizga daxldor nodir asarlarning mukammal nashrini chiqarishda birlamchi manbaga tayanish va soha mutaxassislarining muhokamasidan o‘tkazib nashr qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:



1. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: “Фан” нашриёти, 1960. – Б. 512.
2. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: “Юлдузча” нашриёти, 1989. – Б. 368.
3. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: “Шарқ” нашриёти, 2002. – Б. 336.
4. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 2021, “Zilol buloq” нашриёти, олти жилдлик. IV жилди. – Б. 324.
5. Захириддин Муҳаммад Бобур. Танланган асарлар. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1976. – Б. 85.
6. Захириддин Муҳаммад Бобур. Махрами асрор топмадим.(Париж девони нухаси). – Т.: “Ёзувчи” нашриёти, 1993. – Б. 80.
7. Захириддин Муҳаммад Бобур. Девон. – Т.: “Фан” нашриёти, 1994. – Б. 142.
8. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 2021, “Zilol buloq” нашриёти, олти жилдлик. I жилди. – Б. 600.
9. Ғ. Абдурахмонов, Ш. Шукуров. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1973. – Б. 320.
11. Asadov M. TARJIMA–QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKNING TADQIQOT OBYEKTI //Conferences. – 2025. – Т. 1. – №. 1.
12. Dilafruz, M. (2023). “BOBURNOMA” NING ELEKTRON PLATFORMASINI YARATISH–DAVR TALABI. Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры, 1(1).
13. I Orazova [FRAZEMALAR KOGNITIV SEMANTIKANING O 'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA](#)
14. Shamsiyev U.Bb., Shamsiyeva M.B. “Психолингвистический анализ социализации ребенка”. O‘zbekiston: til va amadaniyat. Lingvistika. 2023/1 (1): 75-85.
15. Sirojiddinov, S. (2011). Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik Mamatov, Ulug ‘bek. 2018. *O ‘zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlari*.
16. Мухаммадиева, Д. (2021). Бобурнома” туркча таржимасида паремияларнинг қиёсий тадқиқи. Фил. фан. бўйича ёзилган дисс. автореф. Тошкент–2021.
17. Xolmanova, Z. (2025, July). O ‘ZBEK SHEVALARI VA TURKIY TILLAR LEKSIKASIDAGI MUSHTARAKLIK. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).
18. O‘razova, I. Frazemalardagi kontaminatsiya hodisasi.[Internet manba]. URL: <https://zenodo.org/records/11108578> (Murojaat etilgan sana: 17.09.2024).